TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 7-oktabr | 280-10-212-Q/24 | Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 21-sentabrdagi “Toshkent va Ohangaron tumanlari hududlaridagi ichki yo‘llar egallagan yer maydonlarini ushbu hududlarining Obodonlashtirish boshqarmasiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib berish to‘g‘risida”gi 666-10-0-Q/24-son qarori haqida

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 21-sentabrdagi “Toshkent va Ohangaron tumanlari hududlaridagi ichki yo‘llar egallagan yer maydonlarini ushbu hududlarining Obodonlashtirish boshqarmasiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib berish to‘g‘risida”gi 666-10-0-Q/24-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Yer kodeksining 5-moddasi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 10-, 25-moddalariga asosan, **qaror qilaman**:

1. Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 21-sentabrdagi “Toshkent va Ohangaron tumanlari hududlaridagi ichki yo‘llar egallagan yer maydonlarini ushbu hududlarining Obodonlashtirish boshqarmasiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib berish to‘g‘risida”gi 666-10-0-Q/24-son qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent tumani hududidagi ichki yo‘llar egallagan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan davlat zaxirasidagi yer maydonlarini ilovaga asosan, ushbu hududining Obodonlashtirish boshqarmasiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib berilsin.

3. Buyurtmachiga:

davlat xizmatlari markazi orqali arxitektura rejalashtirish topshirig‘i ishlab chiqish uchun buyurtmalar berilsin, hamda loyiha-smeta hujjatlari tayyorlash uchun litsenziyaga ega loyiha tashkiloti bilan o‘rnatilgan tartibda shartnoma tuzish;

loyihalash uchun yer osti muhandislik inshootlarining ijro surati tushirilgan 1:500 nisbatdagi topografik xarita va geologik xulosa ishlab chiqish uchun litsenziyaga ega korxonasiga buyurtma berish;

transport vazirligi huzuridagi yo‘l-qurilish ishlarini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga xabarnoma yuborish;

mazkur hududda joylashgan muhandislik tarmoqlarini ko‘chirish yoki muhofaza hududini saqlab qolish ishlari o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishi inobatga olish vazifalari yuklanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali (O.Xoldorov) ushbu qarorga muvofiq belgilangan tartibda kadastr hujjatlarini rasmiylashtirsin hamda davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **S.Ergashev**